

## XALQARO TIJORAT ARBITRAJI MANBALARI

Xajiyev Javohir Madrim o'g'li

**Annotatsiya:** Hozirgi kunda tijorat sohasida faoliyat yuritadigan bir davlat rezidenti va boshqa davlatning rezidenti o'tasida o'zaro shartnomaviy va undan tashqari yuzaga keladigan nizolarni xalqaro tijorat arbitrajlarida ko'rib chiqish odat tusiga aylangan.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro tijorat arbitraji, huquqiy nizo, manbalar, Jeneva protokoli, Jeneva konvensiyasi, Nyu-York konvensiyasi, UNCITRAL namunaviy qonuni.

Avvalo, arbitraj o'zi nima ekanligi haqida so'z yuritsak. Hozirgi kunda tijorat sohasida faoliyat olib boruvchi subyektlar juda ko'p. Ular ma'lum bir darajaga yetganlaridan so'ng milliy bozorlar doirasidan chiqib, xalqaro bozorlarni eggallahsga harakat qilishmoqda. Xususan, juda ko'pchilik tijorat sohasida faoliyat olib boruvchi subyektlar o'z mahsulotlarini, tovarlarini chet elga eksport qilishni afzal bilmoqda. Shuningdek, boshqa tijoriy sohalarda chet ellik subyektlar bilan o'zaro hamkorlik qilmoqdalar. Bunday holda taraflar o'z munosabatlarini shartnomalar asosida shakllantirmoqda. Taraflardan biri shartnomalari bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa o'rtada nizo kelib chiqishi tabiiy. Huquqiy masalalar bo'yicha shu munosabatning ishtirokchilar o'tasida nizo kelib chiqadigan bo'lsa ular nizoni o'zlari mustaqil hal qila olishmasa davlat sudlariga murojaat qilishadi. Lekin hozirgi kunga kelib nizoni davlat sudlarida ko'rishdan boshqa yechimlar mavjud. Bular muzokara, mediatsiya, kanselyatsiya, arbitraj hisoblanib ular nizoni hal qilishning davlat sudlarida ko'rishga nisbatan muqobil usullar sifatida e'tirof etiladi. Shularning ichidan biz arbitraj instituti haqida so'z yuritsak. Arbitrajlar davlatniki bo'lmay, xususiy shaklda tashkil etiladi va asosiy maqsadi tijoriy foyda olish hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib turli xil masalalar bo'yicha, xususan, investitsiya, tijorat, sport va boshqa sohalarga ixtisoslashgan arbitrajlar mavjud. Xalqaro tijorat arbitrajlari tijoriy munosabatlardan yuzaga keladigan huquqiy nizolar yuzasidan tashkil etilgan arbitrajlar hisoblanadi. Bunda xalqaro so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak tomonlari boshqa-boshqa davlat rezidentlari bo'lishi lozimligi hisoblansa, tijorat so'zi yuzaga keladigan nizo tijoriy munosabatlardan kelib chiqqan bo'lishi lozim. Bu munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar nega rezidentlarning biri mansub davlatning milliy sudida hal qilinmaydi degan savol yuzaga keladigan bo'lsa, buning javobi shuki, ikkinchi taraf boshqa tarafning milliy sudining xolisligiga ishonmaydi. Shuning uchun taraflar nizo kelib chiqadigan bo'lsa davlatniki bo'lмаган, xususiy va neytral bo'lган xalqaro tijorat arbitrajlarida ushbu nizoni ko'rib chiqishga kelishishadi. Bu kelishuv arbitraj kelishuvi deb nomlanadi.

Maqolamiz mavzusi xalqaro tijorat arbitraji manbalari bo'lganligi uchun shu haqida fikr yuritsak.

Xalqaro tijorat arbitrajining manbalari

Huquqshunos olim Margaret L.Mozesning fikriga ko'ra Xalqaro tijorat arbitrajining manbalari bo'lib, xalqaro bitimlar, Xalqaro arbitraj amaliyoti, Milliy qonunchilik, Arbitraj qoidalari hisoblanadi. Boshqa bir huquqshunos olim Mauro

R.Sammartano esa xalqaro tijorat arbitrajlarining manbalarini quyidagicha qayd etadi: xalqaro konvensiyalar, tomonlarning xohishi, arbitraj institutining qoidalari, arbitrlarning muqobil tanlovlari, milliy huquq tizimlari va pretsedentlar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek nizolarni arbitrajda ko'rish uchun arbitraj kelishuvi bo'lishi lozim. Arbitraj kelishuvi mavjud bo'lmasa hech qaysi xalqaro tijorat arbitrajining yuzaga kelgan nizoni ko'rib chiqishga yurisdiksiyasi yana ham boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak vakolati bo'lmaydi. Arbitrajlarning davlat sudlaridan asosiy farqlaridan biri shundaki ikkala taraf ham yuzaga kelgan yoki keladigan nizoni arbitrajda ko'rishga rozi bo'lishlari kerak hisoblanadi. Davlat sudlaridagidek bir taraf rozi bo'lmasa ham ishni ko'rib yubora olmaydi.

Taraflarning nizoni arbitrajda ko'rishga roziligi arbitraj kelishuvida ifodalanadi. Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki Xalqaro tijorat arbitrajining birinchi manbasi taraflarning nizoni arbitrajda ko'rish bo'yicha kelishuvi hisoblanadi.

Xalqaro tijorat arbitraji manbalarini vujudga kelishi va qo'llanilishi bo'yicha arbitrajdan oldingi, arbitraj jarayonidagi, va arbitrajdan keyingi deb muhokama qilsak bo'ladi. Bunda arbitraj kelishuvini arbitraj ishni ko'rishidan oldin mavjud bo'lgan manba sifatida, arbitraj jarayonidagi manbalar sifatida esa arbitraj institutining qoidalari, arbitrlarning muqobil tanlovini va xalqaro arbitraj amaliyotini, arbitrajdan keyin qo'llaniladigan manbalar sifatida biz quyida muhokama qiladiganimiz xalqaro bitimlarni keltirish mumkin. Milliy qonunchilikka to'xtaladigan bo'lsak u arbitraj jarayonidan oldin, arbitraj jarayonida va undan keyin ham qo'llaniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Xalqaro tijorat arbitraji to'g'risidagi qonuning 16-moddasiga ko'ra taraflar arbitrlar soni bo'yicha kelisha olmasalar davlat sudidan arbitrlarni tayinlashni so'rashi mumkin. Milliy qonunchilikning xalqaro tijorat arbitraji manbasi sifatida arbitraj jarayonida qo'llanilishi kelsak, taraflar arbitrajga qo'llaniladigan huquq, arbitraj bitimiga qo'llaniladigan huquq, va nizoni hal qilish uchun qo'llaniladigan huquq sifatida qaysidir davlatning milliy qonunchiligin tanlashlari mumkin.

Milliy qonunchilikning arbitrajdan keyin qo'llanilishiga to'xtaladigan bo'lsak, arbitraj qarorini tan lish va ijroga qaratish borasida har bir davlat bu ishni amalga oshirish tartibini o'z milliy qonunchiligidan belgilab qo'ygan bo'ladi.

Xalqaro tijorat arbitrajida arbitraj kelishuvi haqiqiy deb topildi, belgilangan qoidalari bo'yicha ish ko'rib chiqildi va qaror qabul qilindi. Endigi muhim masala arbitraj qarorini tan olish va ijro etish. Taraflar o'z xohishiga binoan arbitraj chiqargan qarorni ijro etishlari mumkin. Lekin bunday bo'lmasa arbitraj qarori bo'yicha arbitraj ishida yutib chiqqan taraf bu qarorni ijroisni ta'minlashda shu qaror ijrosi amalga oshirilishi lozim bo'lgan davlat organlariga murojaat qilishga majbur bo'ladi. Bu qarorni ijrosi esa o'sha davlat milliy sudining qarori bilan amalga oshadi. Arbitraj qarorining davlat sudlari chiqaradigan qarordan farqi ham mana shunda. Davlat sudi chiqargan qaror uchun ijro hujjati beriladi va u ijroga qaratiladi. Lekin arbitraj ishida yutgan taraf agar yutqazgan taraf ijroni o'z xohishi bilan amalga oshirmsa uni biror bir davlat organiga olib borib shu hujjatning ijrosini

ta'minlay olmaydi. Bunda davlat organlari bu qarorning ijrosi uchun milliy sudning qarori zarurligini ta'kidlashadi. Arbitraj qarorlarining davlat sudlari qarorlaridan kamchilik tarafi ham shu. Siz nizoni arbitrajda ko'rib uni hal qilib bo'lganingizda ham uning ijrosi masalasi bo'yicha oxir-oqibat davlat sudiga murojaat qilasiz.

Arbitraj qarori bo'yicha tan olish va ijro etishning eng jihatni ham shuki, sizning arbitraj bitimini tuzganingiz, nizo vujudga kelsa uni arbitrajda ko'rganingiz agar u yuqorida ta'kidlaganimizdek holat yuzaga kelib, arbitraj chiqargan qaror davlat sudida tan olinishi va ijro etilishi amalga oshmasa shuncha qilgan harakatingiz zoye ketishi mumkin.

Bu borada endi biz muhokama qiladiganimiz xalqaro tijorat arbitraji manbasi sifatida xalqaro bitimlar muhim rol o'yнaydi.

Bu xalqaro bitimlar 1923-yildagi Jeneva protokoli, 1927-yilgi Jeneva konvensiyasi va 1958-yilgi Chet el arbitrajlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi Nyu-York konvensiyasi hisoblanadi.

Endi bularga alohida-alohida va bafurja to'xtalsak.

#### 1923-yilgi Jeneva protokoli

Mazkur protokol bir davlat hududidagi arbitraj chiqargan qarorlarini o'sha davlatda ijro etilishini kafolatlaydi. Mazkur protokolning 3-moddasiga ko'ra Har bir ahslashuvchi davlat o'z hududida qabul qilingan arbitraj qarorlarining o'z milliy qonunchiligiga muvofiq o'z organlari tomonidan bajarilishi majburiyatini olgan. Huquqshunos olimlarning aytishicha Jeneva protokolining ikkita maqsadi bor edi. Birinchidan arbitraj kelishuvidagi taraflar o'z nizolarini davlat sudlari orqali emas arbitrajda ko'rishi va arbitraj qoidalarini xalqaro miqyosda qo'llanilishini ta'minlash. Ikkinchidan arbitraj qarorini shu qaror qabul qilingan davlatda ijrosini ta'minlash edi. Bu protokol orqali arbitraj birinchi bo'lib nizoni davlat sudlarida hal qilishning muqobil usuli sifatida davlatlar tomonidan tan olindi. Bu arbitraj instituti uchun juda muhim edi. Lekin bu protokolning kamchiligi sifatida shuni aytish kerakki, yuqorida ta'kidlaganimizdek u faqat davlatlarga o'z hududidagi arbitrajda chiqarilgan qarorlarni shu hududda ijro etilishi majburiyatini yuklagan. Shunday bo'lsa-da, bu protokolni xalqaro tijorat arbitraji sohasida ilk qadam bo'lganligini, o'sha paytda shuning o'zi ham katta yutuq ekanligini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q.

#### 1927 Jeneva konvensiya

1927 Jeneva konvensiyasi konvensiya ishtirokchisi bo'lgan bir davlat hududida chiqarilgan arbitraj qarorini konvensianing boshqa ishtirokchisi bo'lgan davlat hududida ijrosini amalga oshishini maqsad qilib qo'ygan edi. Konvensiyaga muvofiq arbitraj qarori shu arbitraj qarori qabul qilingan davlatda yakuniy bo'lishi lozim edi. Bu talab ikki tomonlama ekzektvatura deb ham nomlanadi va bu shuni anglatadi-ki, arbitraj chiqargan qaror bu qaror chiqqan joydagи davlat sudlari tomonidan tasdiqlanishi lozim. Shundagina arbitraj qarori Jeneva konvensiyasiga muvofiq xorijda samarali tan olinar edi. Jeneva konvensiyasiga ko'ra arbitraj qarori foydasiga chiqarilgan taraf haqiqiy arbitraj kelishuvi mavjudligini va arbitraj ushbu kelishuvga muvofiq o'tkazilganligini isbotlashi lozim edi. Konvensiyaga ko'ra bir ahslashuvchi davlat hududidagi arbitrajda chiqqan qarorni boshqa arbitrajda ijro etilishi Jeneve protokolidan keyingi ikkinchi qadam edi. Lekin yuqorida qayd etgan holatlarimiz, arbitraj qarorining u chiqqan hududda yakuniy bo'lishi lozimligi va

arbitraj qarori foydasiga chiqarilgan taraf arbitraj kelishuvini haqiqiyligini va arbitraj muhokamasi kelishuvga muvofiq amalga oshirilganligini isbotlash majburiyatining mavjudligi olimlar tomonidan kamchilik sifatida e'tirof etilgan. Nima bo'lganda ham bu holatlar Konvensianing muvaffaqiyatiga soya solmaydi.

1958-yilgi Chet el arbitrajlari qarorlarini tan olish va ijroga qaratish to'g'risidagi Nyu-York konvensiyasi Ikkinchi jahon urushi tugaganidan so'ng xalqaro tijorat arbitraji sohasida yangi, zamонавиу qoidalar ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi. Bu borada bir qancha xalqaro tashkilotlar xususan Xalqaro Savdo Palatasi (ICC) xalqaro tijorat arbitraji qarorlarini ijro etish uchun mo'ljallangan o'z loyihasini ishlab chiqdi.

Konvensianing bиринчи loyihasi 1953 yilda ishlab chiqildi. Xalqaro Savdo Palatasi loyihani Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzuridagi Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) ga yubordi. Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash bir qancha vaqt o'tib bu boradagi o'z loyihasini ishlab chiqdi.

1958-yilda Nyu-York shahrida konferensiya bo'lib o'tadi va konferensiyada Xalqaro Savdo Palatasi va Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengashning loyihalari ko'rib chiqildi. Bu loyihalar yuzasidan qizg'in bahs munozaralar bo'lib o'tdi. Gollandiya delegatsiyasi bu loyihalarda nazarda tutilmagan ammo o'zlari zarur deb bilgan taklifni kiritishdi, ya'ni bu loyihalarga arbitraj kelishuvining haqiqiyligi yuzasidan normalarni kiritish lozim deb taklif berishdi. Yuqoridagi taklif, Xalqaro savdo palatasi va Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash loyihalari asosida Nyu-York konvensiyasi qabul qilindi.

Nyu-York konvensiyasi arbitraj bitimlarini haqiqiyligini tan olishni nazarda tutadi. Arbitraj qarorining haqiqiy yoki haqiqiy emasligini isbotlash bilan bog'liq masalalar osonlashtirganligi, xususan arbitraj bitimining haqiqiyligi yoki arbitraj muhokamasining arbitraj bitimiga muvofiq o'tkazilgan yoki yo'qligini isbotlash bilan bog'liq majburiyat unga e'tiroz bildirgan tomonga yuklaganligi, arbitrajni tanlashda taraflarning avtonomiyasi e'tirof etilganligi, shuningdek, ikki tomonlama ekzekvatura mexanizmining bekor qilinganligi

Nyu-York konvensiyasining yutug'i edi. Nyu-York konvensiyasi Jeneva konvensiyasidagi arbitraj qarorining yakuniy bo'lishi kerakligi xususidagi bandning o'rнига, arbitraj qarorining arbitraj qarori berilganidek majburiy bo'lib, qo'shimcha tasdiqlashni talab qilmaydigan qilib o'zgartirdi. Nyu-York konvensiyasi arbitraj institutining yuqorida sanab o'tganimiz nizoni hal qilishning boshqa muqobil usullaridan ustunligini yuzaga chiqaruvchi hujjatdir.

Chunki muzokara, kanselyatsiya va mediatsiyalar, o'zlari mustaqil institut sifatida mavjud tomonlar o'rtasidagi nizoni hal qilishi natijasida yuzaga keladigan yuridik hujjatning ijrosi asosan, tomonlarning ixtiyorida qolaveradi.

Arbitrajning qarori esa yakuniy va majburiydir. Nyu-konvensiyasi esa arbitrajda chiqarilgan qarorning boshqa bir davlat hududida ijro etilishini ta'minlab beradi. Nizoni hal qilishning boshqa usullarida Nyu-York konvensiyasi darajasidagi hujjat mavjud emas. Hozirgi kunga kelib 156 ta davlat Nyu-York konvensianing ishtirokchisi hisoblanadi. O'zbekiston O'zbekiston Respublikasi Nyu-York konvensiyasiga Oliy Majlisining 1995-yil 22-dekabrdagi 184-I-sonli qarori bilan qo'shilgan va bu qaror 1996-yil 7-fevraldan kuchga

kirgan hisoblanadi. Shu ma'noda O'zbekiston ham konvensiyada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga olgan.

Yuqorida sanab o'tganlarimizdan tashqari yana bir tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan xalqaro qoidalar to'plami mavjud bo'lib, u UNCITRAL namunaviy qonuni hisoblanadi. Bu namunaviy qonun 1985 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro Savdo Huquqi Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

UNCITRAL namunaviy qonuni yuqorida ta'kidlab o'tganimiz Nyu-York konvensiyasini to'ldiruvchi uni sharhlovchi hujjat deya e'tirof etsak mubolag'a bo'lmaydi. UNCITRAL Kotibiyatining fikriga ko'ra "UNCITRAL namunaviy qonuning maqsadlaridan biri Nyu-York konvensiyasi bo'yicha har bir davlat o'z majburiyatlarini talqin qilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'nga kelishmovchiliklarni kamaytirish edi". UNCITRAL namunaviy qonuning yana bir maqsadi Nyu-York konvensiyasida nazarda tutilganidan tashqari milliy sudlarda xalqaro tijorat arbitrajiga yagona munosabatni yanada rag'batlantirish hisoblangan.

Umuman olganda Jeneva protokoli, Jeneva konvensiyasi va Nyu-York konvensiyasi xalqaro tijorat arbitrajining bugungi kungdagi ko'rinishga kelishiga katta hissa qo'shdii. Ular qabul qilinishi davomida bir-birini to'ldirdi, kamchiliklar tuzatildi va arbitraj qarorlarini tan olish va ijro etish sohasida mukammal tizimni vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Xulosa: Hozirgi kunda tijoriy munosabatlarda taraflar o'rtasida nizo yuzaga kelsa bu nizoni arbitrajda ko'rish va arbitraj qarorining tan olish va ijro etilishi uchun kerakli mexanizmlar mavjud. Shuning uchun taraflar arbitrajni o'z nizolarini hal qilish uchun tanlashlari mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Gary G.Born International Commercial Arbitration third edition
2. Mauro R.S. International Arbitration Second edition
3. Margaret L. Moses The principles and practice of International Commercial Arbitration
4. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)